

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI
IJTIMOIY GIGYENA VA SSB KAFEDRASI**



**JAMOAT SALOMATLIGI MARKETING,
MENEJMENT (JAMOAT SALOMATLIGI)
FAN ISHCHI DASTURI**

Bilim sohasi: 900000 – Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta’minot
Ta’lim sohasi: 910 000 – Sog‘liqni saqlash
Ta’lim yo‘nalishi: 60910300- Pediatriya ishi

	Fan kodi JSMM1606	O‘quv yili 2025-2026	Semestr 5-6	Kreditlar 6
	Fan turi Majburiy	Ta’lim tili O‘zbek		Xaftadagi dars soatlari 4
1	Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)		Mustaqil ta’lim (soat)
	Jamoat salomatligi. Marketing, menejment	90		90
				180
2	<p>Fanning mazmuni. Fanning maqsadi - jamoat salomatligi, unga ta’sir etuvchi xavf omillari, aholi salomatligini saklash, mustaxkamlash va qayta tiklashni ta’minlaydigan tizimi, tashkiliy-metodik, boshqaruv jarayoniga baho bera oladigan, aholiga birlamchi tibbiy sanitariya yordamini tashkil etish buyicha nazariy, ilmiy-amaliy va uslubiy bilimlarga ega bo‘lgan mutaxassisni (umumiy amaliyot shifokor) tayyorlashdir. Fanning vazifalari: talabalarga nazariy va amaliy bilimlar berish, O‘zbekiston Respublikasi hukumatining sog‘liqni saklash borasidagi siyosatini nazariy asoslash va sog‘liqni saklash, aholiga birlamchi tibbiy yordam ko‘rsatishning yangi shakllari va usullarini ishlab chiqish, hamda ularni amaliyotga tadbiq etish; bozor iqtisodiyotini hisobga olgan holda sog‘liqni saklashni tashkil etish, boshqaruv tizimini ishlab chiqish va takomillashtirish; tibbiyot xodimlarini zamon talablariga mos holda tayyorlash jarayonini takomillashtirish bo‘yicha bilimlarini va ko‘nikmalarini shakllantirish.</p> <p>Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari) II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: Jamoat salomatligi. Marketing va menejment fani 5 semestr: 1. “Jamoat salomatligi. Marketing, menejment” faniga kirish. Tibbiyot statistikasi asoslari “Jamoat salomatligi. Marketing, menejment” fan sifatida tibbiyot, gigiena va jamiyat fanlari ichidagi o‘rni. Respublikada va xorijiy davlatlarda “Jamoat salomatligi. Marketing, menejment” fanining shakllanishi va rivojlanishi. Zamonaviy bosqichda sog‘liqni saqlashni tashkil etish. O‘zbekiston Respublikasi aholi salomatligini muhofaza qilishning qonunchilik asoslari. Tibbiyot statistikasi va uning sog‘liqni saqlashni nazariy va amaliy ahamiyati. Statistikaning nazariy asoslari va mazmuni. General va tanlab olingan majmualar haqida tushuncha. Tibbiy ma’lumotlarga ishlov berishda asosiy statistik usullar. Statistik tadqiqot bosqichlari. Mutloq, nisbiy, o‘rtacha miqdorlar, ularni tibbiyotda qo‘llanilishi. Dalillarga asoslangan tibbiyot haqida tushuncha. 2. Aholi orasida demografik jarayonlarni o‘rganish usullari. Sog‘lom turmush tarzi va uni shakllantirish usullari Demografiya, uning tibbiyotda va sog‘liqni saqlashdagi o‘rni. Tibbiy ijtimoiy jihatlar. Demografik portlash, krizis tushunchalari. Aholi o‘shining</p>			

muammolari. Oilani oqilona rejalashtirish. Jismoniy rivojlanish - aholi salomatligini ko'rsatkichi sifatida. Jismoniy rivojlanishni o'rganishning sog'liqni saqlashdagi ahamiyati. Jismoniy rivojlanishning mahalliy va regional standartlari. Jismoniy va jinsiy rivojlanishning akseleratsiyasi - ijtimoiy-gigienik muammo sifatida. Sog'lom turmush tarzi haqida tushuncha. Sog'lom turmush tarzitegoriyalari. Sog'lom turmush tarzini shakllantirish usullari. Aholi orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish texnologiyalari. Sog'lom turmush tarzi aspektlari va standartlari. Aholining maqsadli guruhlariva ularning o'ziga xos xususiyatlari. Sog'liqni saqlashda profilaktik yo'nalishlar. Profilaktika turlari.

3. Aholi kasallanishi va uni o'rganish usullari, ijtimoiy-tibbiy qirralari

Aholining kasallanishini o'rganishda davlat statistikasining ahamiyati. Kasalliklar, jarohatlar va o'lim sabablarining tasnifi. Aholini kasallanishini o'rganishning usullari va uslublari, kasallanishni o'rganishda ekspert baholash, aholini kasallanish sabablarini o'rganish. Muhim noinfeksion kasalliklarning tibbiy-ijtimoiy aspektlari (yurak qon-tomir kasalliklari, onkopatologiya, travmatizm). Asab-ruhiy kasalliklar, alkogolizm, narkomaniya, toksikomaniya tibbiy-ijtimoiy muammo sifatida.

4. Sog'liqni saqlash tizimida birlamchi tibbiy sanitariya yordamni tashkil etish. SHaxar va qishloq aholisiga tibbiy yordamni tashkil etish

BTSYO ko'rsatadigan muassasalar, vazifalari, strukturasi. BTSYO tashkil etish, baholash va tahlil qilish. Umumiy amaliyot shifokori asosiy vazifalari. UASHni aholini turli kontigentlari bilan ishlashda asosiy xususiyatlari. UASHning asosiy ish uslubi. UASH ish faoliyatini baholaydigan ko'rsatkichlar. UASH faoliyatida qo'llaniladigan hisobiy va hisobot hujjatlar. Tez tibbiy yordam ko'rsatishni tashkil etish (TTYO) va uning aholining barcha qatlamlariga yordam ko'rsatishning muhim tomonlari. TTYO muassasalari ishini mazmuni, ular faoliyatini tahlili va hisob-kitobi. Oilaviy poliklinika tuzilishi, asosiy vazifalari. O'zbekiston Respublikasining geografik xududlaridan kelib chiqqan holda, aholi zich joylashgan hududlarida yashovchi shahar aholisiga hamda aholi sayoz joylashgan hududlarida yashovchi qishloq aholisiga ambulator va statsionar yordamini tashkil etish, muassasalar faoliyatini baholash va tahlil qilish. Qishloq aholisiga tibbiy yordam ko'rsatishni o'ziga xos xususiyatlari va ularning turli bosqichlarida davolash-profilaktika muassasalari ishini tashkil etish. O'zbekiston Respublikasi ixtisoslashtirilgan tibbiy markazlar vazifalari va strukturasi.

5. Onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish

Onalar va bolalarga davolash-profilaktik yordamini ko'rsatish tizimini boshqarish tartibi. Onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish tizimining tarmoqlari va kadrlari haqidagi umumiy axborotlar. Tibbiy-akusherlik yordamni ko'rsatishni tashkillashtirish; ayollar va bolalarga xizmat ko'rsatuvchi muassasalarning asosiy turlari va ularning ishini tashkillashtirish tamoyillari. Akusherlik kompleksi, uning vazifalari va tarkibi; xizmat ko'rsatishning asosiy kontingentlari. Ayollar va bolalar salomatligini o'rganish; ish va yashash sharoitlarini yaxshilash borasidagi chora-tadbirlar; ijtimoiy-xuquqiy yordam; bo'lajak bolani salomatligini antenatal davrda saqlashning asosiy vazifalari. Ayollar salomatligini muhofaza qilishda asosiy ijtimoiy-gigienik muammolar;

abort; onalar o'limi; ko'pbolalik; ginekologik kasalliklar va bepushtliklar muammolari. Bolalar va onalar o'limini oldini olish chora-tadbirlari.

6 semestr:

6. Mehnat qobiliyatini aniqlash bo'yicha vrachlik ekspertizasi

Vaqtinchalik mehnatga yaroqsizlik holatini aniqlash bo'yicha tibbiy-mehnat ekspertizasini tashkil etish (vaqtinchalik mehnatga yaroqsizlik holati qayd etiladigan hujjatlarni to'ldirish va berilish tartibi). Turg'un mehnatga yaroqsizlik holatini aniqlash bo'yicha tibbiy-mehnat ekspertizasini tashkil etish. Ijtimoiy sug'urta va ijtimoiy ta'minot. Vrachlik mehnat ekspert hayyati va uning tarkibi. Nogironlik sabablari va guruxlari.

7. Sog'liqni saqlashda marketing. Marketing muhiti va marketing tadbirlarini ishlab chiqishga ta'sir etuvchi omillar

Marketing boshqaruvning mohiyati, maqsadi, vazifalari. Marketing fanining vujudga kelish sabablari, kontseptsiyalari. Sog'liqni saqlashga bo'lgan talablar, yuqori sifatli tibbiy xizmatlarni ko'rsatishda marketing boshqaruvining zarurligi. ehtiyoj, talab, tovar, xizmatlar, ayriboshlash va bozor tushunchalarining mohiyati va ularni tibbiy bozorni marketing boshqaruvidagi o'rni. Tibbiy xizmatlarga bo'lgan bozor talablari va bozor munosabatlari. Aholiga sifatli tibbiy xizmatlarni ko'rsatishda Fan va texnika taraqqiyotining o'rni.

Marketing tadbirlari majmui va ularning mohiyati. Taklif etilayotgan xizmatlar, ularning narxi, ularni mijozga etqazish tadbirlari. Mijozga taklif etilayotgan tovar va xizmatlarning mohiyati. Tibbiyotda servis xizmatlarini tashkil etish va boshqarish. Marketing muhiti va uni marketing tadbirlariga ta'siri. Mikro va makro muhit tushunchalari, ularni marketing tadbirlarga ta'siri. Marketing tadqiqoti usullari va bosqichlari. Tibbiy xizmatlarga bo'lgan ehtiyojni o'rganish. Iste'molchilarning asosiy qatlamlari va talabga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganish. Aholi salomatligini yaxshilashda va sifatli tibbiy xizmatlarni ko'rsatishda tibbiy xizmatlar marketingining o'rni.

8. Sog'liqni saqlashda menejment.

Menejment fanining vujudga kelish shart naraitlari. Menejment fanini rivojlanish bosqichlari va nazariyalari. An'anaviy (klassik) menejment maktabini vujudga kelishi va uning asoslari. Menejmentda ma'muriy boshqarish nazariyasi va ahamiyati. Inson psixologiyasiga asoslangan boshqaruv nazariyasini shakllanishi va rivojlanishi. Menejment funksiyalarini mohiyati. Menejmentda rejalashtirish, tashkil etish, motivatsiyalash va nazorat. Menejment piramidasi. Boshqarishning uch bosqichi va ular o'rtasidagi bog'liqlik. Davolash profilaktika muassasalari boshqaruvining quyi (operativ) bosqichi va unda UASHning o'rni. Menejment funksiyalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik.

9. Menejmentda qaror qabul qilish jarayoni. Xodimlarni boshqarish

Qaror qabul qilish menejmentning funksiyasi sifatida. Muassasaning ichki va tashqi muxitining SWOT-tahlili. Menejmentda qaror qabul qilish uslublari. Menejmentda qaror qabul qilishga ta'sir etuvchi omillar. Muassasaning missiyasi va maqsadi. Al'ternativ qarorlarni tayyorlash va tanlash asoslari. Muassasada xodimlarni boshqarishning asoslari. Muassasa mehnat resurslarini rejalashtirish va uni baholash. Tibbiyot xodimlarni bilim, tajriba, malakalariga tibbiy xizmat ko'rsatishning sifatini bog'liqligi va uni ta'minlash

muammolari. Xodimlarni ishga qabul qilish, ularni tanlash va ish joylarini taqsimlash. Xodimlarni tayyorlash va qayta tayyorlash. DPMnin faoliyatini boshqarishda menejerning roli va uning shaxsiy sifatlari. Menejer va etakchilik. Menejmentda ziddiyatlarni boshqaruv.

2.2. Amaliy mashg'ulotlarning mavzular ro'yxati:

5-semestr

- 1 Jamoat salomatligi va sog'likni saklashni tashkil etish fanning o'rni, asosiy vazifalari. Tibbiyot statistika, uning sog'liqni saqlashdagi ahamiyati, tibbiyot statistikasi turlari va ularning asosiy vazifalari
- 2 **Analitik statistikaga kirish.** Statistik tadqiqotlarni tashkil etish va uning I-II-III-bosqichlari.
- 3 Statistik tadqiqotlarni IV-bosqichi.
- 4 Nisbiy miqdorlar, ularning tibbiyotda qo'llanilishi.
- 5 O'rtacha miqdorlar, turlari, hisoblash usullari, tibbiyotda qo'llanilishi.
- 6 **Sifatli tahlil usullari o'zgaruvchilar, mustaqil va tegishli namunalar (hi-kvadrat testi, Fisher aniq testi, Maknemar testi).**
- 7 **Parametrik bo'lmagan testlar (Mann-Whitney U-testi, Wilcoxon U-testi, Kruskal testi. Uollis testi, Fridman testi.**
- 8 Korrelyatsiya koeffitsienti, uning baholash usullari, statistik tahlil etishda qo'llanilishi. **Korrelyatsiya (Pirson va Spirman) va regressiya.**
- 9 Grafik tasvirlar, ularning qo'llanilishi.
- 10 Dinamik qatorlar, turlari, ko'rsatkichlari, statistik tahlil etishda qo'llanilishi.
- 11 Standartlashtirish, standartlashtirilgan ko'rsatkichlarining ahamiyati, ularni hisoblash.
- 12 Demografik jarayonlarning tibbiy va ijtimoiy jihatlari.
- 13 Sog'lom turmush tarsi kategoriyalari. Sog'lom turmush tarzini shakllantirish usullari. Aholi orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish texnologiyalari. Sog'lom turmush tarzi aspektlari va standartlari.
- 14 Aholi kasallanishlari ko'rsatkichlari va ularni hisoblash. Halqaro kasalliklar tasnifi.

6-semestr

- 1 Sog'liqni saqlash tizimida birlamchi tibbiy sanitariya yordamni tashkil etish.
- 2 SHaxar aholisiga tibbiy yordamni tashkil etish.
- 3 Qishloq aholisiga tibbiy yordamni tashkil etish.
- 4 Onalar salomatligini muhofaza qilish.
- 5 Bolalar salomatligini muhofaza qilish.
- 6 Mehnat qobiliyatini aniqlash bo'yicha vrachlik ekspertizasi
- 7 Aholiga sanitariya-epidemiologiya hizmatini tashkil etish. Aholini gigienik o'qitish va tarbiyalashda OSHning roli. Tibbiy profilaktika turlari.
- 8 Marketing nazariyalari va kontseptsiyalari. Marketingning vujudga kelish asoslari, tarixi, marketing elementlari.

- Marketing tadqiqotlari.
- 9 Sogʻliqni saqlashda marketing. Marketing muhiti va marketing tadbirlarini ishlab chiqishga taʼsir etuvchi omillar .
 - 10 Marketing tadqiqotlarini oʻtkazish tamoyillari. Marketing tadqiqotlarida axborot yigʻish usullari
 - 11 Zamonaviy menejment, uning mohiyati va xususiyatlari. Menejment uslublari, funktsiyalari.
 - 12 Sogʻliqni saqlashda menejer oʻrni va roli. Sogʻliqni saqlash boshqaruvida qarorlar qabul qilish.
 - 13 Strategik, taktik, operativ qarorlar. Xodimlarni boshqarish.
 - 14 Xodimlarni ishga qabul qilish, ularni tanlash va ish joylarini taqsimlash. Tibbiyot xodimlarini tayyorlash va qayta tayyorlash
 - 15 Standartlar va klinik protokollar, ularni tuzish tamoyillari.
 - 16 Sifatni nazorat, ekspertiza qilish tartibi va meʼyoriy-huquqiy aktlar **jami**

III. Amaliy mashgʻulot boʻyicha koʻrsatma va tavsiyalar.

Amaliy mashgʻulotning nazariy va amaliy qismi oʻzaro bogʻliq holda oʻtkaziladi.

Amaliy mashgʻulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir oʻqituvchi tomonidan oʻtkaziladi.

Amaliy mashgʻulotlarni oʻtkazishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilinadi:

Amaliy mashgʻulotlarni maqsadini aniq belgilab olish;

Oʻqituvchining innovatsion pedagogik faoliyati boʻyicha bilimlarni chuqurlashtirish imkoniyatlariga talabalarda qiziqish uygʻotish;

Talabada natijani mustaqil ravishda qoʻlga kiritish imkoniyatini taʼminlash;

Talabani nazariy-metodik jihatdan tayyorlash va h.k.

Fan davomida egallanadigan amaliy koʻnikmalar roʻyhati:

Laboratoriya ishlarini tashkil etish boʻyicha koʻrsatmalar (koʻzda tutilmagan)

V. Fan boʻyicha kurs ishi (loyihasi)

Fan boʻyicha kurs ishi oʻquv rejasida koʻzda tutilmagan.

VI. Mustaqil taʼlim va mustaqil ishlar

Mustaqil taʼlim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

Ishchi oʻquv dasturining mustaqil taʼlimga oid boʻlim va mavzulari	Mustaqil taʼlimga oid topshiriq va tavsiyalar
1. Oʻzbekiston Respublikasi sogʻliqni saqlash tizimi – islohot yoʻlida.	Prezentatsiyalarni taqdimotini oʻtkazish, jadvallar, referatlar, krossvordlar, testlar tuzish; amaliy ishlarni mustaqil bajarish
2. Nisbiy miqdorlarni hisoblash boʻyicha masalalar	Ish daftarida masalalar yechish, jadvallar, amaliy ishlarni mustaqil bajarish

yechish.	
3. O'rtacha mikdorlarni hisoblash bo'yicha masalalar yechish.	Ish daftarida masalalar yechish, jadvallar, amaliy ishlarni mustaqil bajarish
4. Statistika tadqiqotlar natijasini ishonchlik darajasini hisoblashning parametrik usullari bo'yicha masalalar yechish.	Ish daftarida masalalar yechish, jadvallar, amaliy ishlarni mustaqil bajarish
5. Xodisalarorasi bog'lanish kuchini hisoblash bo'yicha masalalar yechish.	Ish daftarida masalalar yechish, jadvallar, amaliy ishlarni mustaqil bajarish
6. Standartlashtirilgan ko'rsatkichlarni hisoblash bo'yicha masalalar yechish.	Ish daftarida masalalar yechish, jadvallar, amaliy ishlarni mustaqil bajarish
7. Dinamik kator ko'rsatkichlarini hisoblash bo'yicha masalalar yechish.	Ish daftarida masalalar yechish, jadvallar, amaliy ishlarni mustaqil bajarish
8. Demografik ko'rsatkichlarni hisoblash bo'yicha masalalar yechish.	Ish daftarida masalalar yechish, jadvallar, amaliy ishlarni mustaqil bajarish
9. Kasallanish ko'rsatkichlarini hisoblash bo'yicha masalalar yechish.	Ish daftarida masalalar yechish, jadvallar, amaliy ishlarni mustaqil bajarish
10. Muhim noepidemik kasalliklarni o'rganish va maqolalarni tahlil qilish.	Ish daftarida masalalar yechish, jadvallar, amaliy ishlarni mustaqil bajarish
11. Jarohatlanishlarni oldini olish bo'yicha modellar ishlab chiqish va uni tahlil qilish.	Ish daftarida masalalar yechish, jadvallar, amaliy ishlarni mustaqil bajarish
12. SHahar poliklinikasi va kasalxonasi faoliyati ko'rsatkichlarini hisoblash bo'yicha vaziyatli masalalar yechish.	Ish daftarida masalalar yechish, jadvallar, amaliy ishlarni mustaqil bajarish
13. Akusherlik kompleksi va ayollar maslahat xonasi faoliyati ko'rsatkichlarini hisoblash bo'yicha vaziyatli masalalar yechish.	Ish daftarida masalalar yechish, jadvallar, amaliy ishlarni mustaqil bajarish
14. Bolalar tibbiy muassasalar faoliyatini tahlil qilish bo'yicha vaziyatli masalalar yechish.	Ish daftarida masalalar yechish, jadvallar, amaliy ishlarni mustaqil bajarish

15. Sogʻlom turmush tarziini shakllantirish va targʻib qilish kontseptsiyasi.	Ish daftarida masalalar yechish, jadvallar, amaliy ishlarni mustaqil bajarish
16. Maqsadli guruxlar -hayot tarzini samarali shakllantirish asosi.	Prezentatsiyalarni taqdimotini oʻtkazish, jadvallar, referatlar, krossvordlar, testlar tuzish; amaliy ishlarni mustaqil bajarish
17. Hulq-atvor omillariga taʼsir koʻrsatishning valeologik yondoshuvlari.	Prezentatsiyalarni taqdimotini oʻtkazish, jadvallar, referatlar, krossvordlar, testlar tuzish; amaliy ishlarni mustaqil bajarish
18. Boshqa davlatlarda BTSYO muammolari va yutuqlari	Prezentatsiyalarni taqdimotini oʻtkazish, jadvallar, referatlar, krossvordlar, testlar tuzish; amaliy ishlarni mustaqil bajarish
19. Jamoat salomatligi va sogʻliqni saqlashni tashkil etish yoʻnalishida boshqa davlatlardagiholat, xalkaro hamkorlik.	Prezentatsiyalarni taqdimotini oʻtkazish, jadvallar, referatlar, krossvordlar, testlar tuzish; amaliy ishlarni mustaqil bajarish
20. BJSST, uning strukturasi, asosiy faoliyati. Xalqaro dasturlar, birlamchi tibbiy-sanitariya yordamning holati. Ularda Oʻzbekistonning hissasi.	Prezentatsiyalarni taqdimotini oʻtkazish, jadvallar, referatlar, krossvordlar, testlar tuzish; amaliy ishlarni mustaqil bajarish
21. Tibbiy muassasalar marketingi.	Prezentatsiyalarni taqdimotini oʻtkazish, jadvallar, referatlar, krossvordlar, testlar tuzish; amaliy ishlarni mustaqil bajarish
22. Marketing ichki va tashqi muhiti.	Prezentatsiyalarni taqdimotini oʻtkazish, jadvallar, referatlar, krossvordlar, testlar tuzish; amaliy ishlarni mustaqil bajarish
23. Marketing tadbirlari kompleksi va ularning mohiyati.	Prezentatsiyalarni taqdimotini oʻtkazish, jadvallar, referatlar, krossvordlar, testlar tuzish; amaliy ishlarni mustaqil bajarish
24. Marketingda reklamaning oʻrni.	Prezentatsiyalarni taqdimotini oʻtkazish, jadvallar, referatlar, krossvordlar, testlar tuzish; amaliy ishlarni mustaqil bajarish
25. Biznes-reja ishlab chiqish tamoyillari, DPM biznes rejasini tuzish va muhokama qilish	Prezentatsiyalarni taqdimotini oʻtkazish, jadvallar, referatlar, krossvordlar, testlar tuzish; amaliy ishlarni mustaqil bajarish
26. Sogʻliqni saqlashni rejalashtirish koʻrsatkichlarini hisoblash boʻyicha masalalar yechish.	Prezentatsiyalarni taqdimotini oʻtkazish, jadvallar, referatlar, krossvordlar, testlar tuzish; amaliy ishlarni mustaqil bajarish
27. Sogʻliqnisaqlash iqtisodiyoti koʻrsatkichlarini hisoblash	Prezentatsiyalarni taqdimotini oʻtkazish, jadvallar, referatlar, krossvordlar, testlar tuzish; amaliy ishlarni mustaqil bajarish

bo'yicha masalalar echish.	
28. Menejrlarning liderlik fazilatlarini shakllantirish.	Prezentatsiyalarni taqdimotini o'tkazish, jadvallar, referatlar, krossvordlar, testlar tuzish; amaliy ishlarni mustaqil bajarish
29. Zamonaviy sharoitda kadrlar siyosatining ahamiyati va roli.	Prezentatsiyalarni taqdimotini o'tkazish, jadvallar, referatlar, krossvordlar, testlar tuzish; amaliy ishlarni mustaqil bajarish
30. Boshqaruv kadrlarni tayyorlashning zamonaviy tizimi.	Prezentatsiyalarni taqdimotini o'tkazish, jadvallar, referatlar, krossvordlar, testlar tuzish; amaliy ishlarni mustaqil bajarish
31. Ziddiyatning tasnifi, kelib chiqish sabalari va ularni bartaraf etish yo'llari.	Prezentatsiyalarni taqdimotini o'tkazish, jadvallar, referatlar, krossvordlar, testlar tuzish; amaliy ishlarni mustaqil bajarish
32. SHaxsning ijtimoiy-psixologik tamoyillari.	Prezentatsiyalarni taqdimotini o'tkazish, jadvallar, referatlar, krossvordlar, testlar tuzish; amaliy ishlarni mustaqil bajarish
33. Xokimiyat va boshqaruv stillari.	Referat, jadval, slayd va boshqalar

Fan bo'yicha mustaqil ish auditoriya va auditoriyadan tashqari o'tkaziladi.

Talaba mustaqil ishini tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

- Birlamchi bo'g'in tibbiy muassasalarida aholini profilaktik ko'rik, bemorlarni dispanserlash, patronajlarda qatnashish, tibbiy hujjatlarni to'ldirish, tahlil qilish;
- Aholi orasida sanitar oqartuv ishlarni, suxbat va ma`ruzalarni o'tkazish;
- Ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;
- Berilgan mavzu bo'yicha axborot (referat) tayyorlash;
- Fanning bo'limlari yoki mavzulari ustida maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha ishlash va ma`ruzalar qilish;
- Ilmiy maqola, anjumangama`ruza, tezislarni tayyorlash;
- Vaziyatli masalalar yechish;
- Keys (real tashkiliy vaziyatlar va tashkiliy vaziyatli masalalar asosida Keys-stadi) echish;

SHuningdek talabani mustaqil ishi bo'lib:

- Grafik organayzerlar ishlab chiqish va to'ldirish;
- Krossvordlar tuzish va echish;
- Prezentatsiya va videoroliklar tayyorlash hamda mustakil ish jarayonida keng qo'llash va h.k.
- fanni faol o'zlashtirishda talabalarni olimpiada, tanlovlar, ko'rgazma, anjumanlar va boshqa tadbirlarda ishtirok etish.

3 V.Ta`lim natijalari/kasbiy kompetensiyalari.

Talaba semestr yakunida:

1. Abstrakt fikr yuritish, xodisalarni tahlil va sintez qilish qobiliyatiga ega bo'lish;
2. Dunyoqarashni shakllantirish uchun falsafiy bilimlarning asoslaridan foydalanish qobiliyati;
3. Nostandart vaziyatlarda harakat qilish qobiliyati, qabul qilingan qarorlar uchun

	<p>ijtimoiy va ahloqiy javobgarlikni olishga tayyorlik;</p> <p>4. O‘z-o‘zini rivojlantirishga, anglashga, o‘qishga, ijodiy salohiyatdan foydalanishga tayyorlik;</p> <p>5. Kasbiy faoliyatning standart vazifalarini axborot, bibliografik manbalar, biotibbiyot terminologiyasi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va axborot xavfsizligining asosiy talablarini hisobga olgan holda hal qilishga tayyorlik;</p> <p>6. Professional faoliyatdagi muammolarni hal qilish uchun og‘zaki va yozma ravishda rus va xorijiy tillarda muloqot qilishga tayyorlik;</p> <p>7. Tibbiy tashhis qo‘yishda ko‘zda tutilgan tibbiy asboblardan foydalanishga tayyorlik.</p>																				
4	<p>VI. Ta‘lim texnologiyalari va metodlari.</p> <p>ma`ruzalar;</p> <p>interfaol keys-stadilar;</p> <p>tezkor savol-javoblar;</p> <p>guruxlarda ishlash;</p> <p>jamo bo‘lib ishlash;</p> <p>taqdimotlar tayyorlash;</p> <p>dalolatnomalar yozish;</p>																				
5	<p>VII. Kreditlarni olish uchun talablar.</p> <p>Jamoat salomatligi. Marketing, menejment fani bo‘yicha nazorat turlari va nazorat mezonlari haqidagi ma’lumot fan bo‘yicha birinchi mashg‘ulotda talabalarga e’lon qilinadi.</p> <p>Talabalarining fan bo‘yicha o‘zlashtirish darajasining Davlat ta’lim standartlariga muvofiqligini ta’minlash uchun quyidagi nazorat turlari o‘tkaziladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> - joriy nazorat (JN); - oraliq nazorat (ON); - yakuniy nazorat (YaN) <p>5-6- semestr – 3/3 kredit JN – 3/3</p> <p>ON – 0 kredit (o‘tilishi majburiy).</p> <p>YN – 0 kredit (o‘tilishi majburiy).</p> <p>Fan bo‘yicha talabaning semestr (o‘quv yili) davomidagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 100 ballik tizimda baholanadi va baholash turlari bo‘yicha quyidagicha taqsimlanadi.</p> <table border="1"> <thead> <tr> <th>No</th> <th>Baxolash turi</th> <th>Maksimal ball</th> <th>Kredit soni</th> </tr> </thead> <tbody> <tr> <td>1.</td> <td>Auditoriyadagi o‘quv mashg‘ulotlarni baxolash (JN)</td> <td>100</td> <td>6</td> </tr> <tr> <td>2</td> <td>Oralik nazorat (o‘tilishi majburiy).</td> <td>100</td> <td>0</td> </tr> <tr> <td>3</td> <td>Yakuniy nazorat (YaN) (o‘tilishi majburiy).</td> <td>100</td> <td>0</td> </tr> <tr> <td></td> <td>JAMI</td> <td>100</td> <td>6.0</td> </tr> </tbody> </table> <p>Fanga ajratilgan 6 kreditni talaba JN davomida yig‘adi.</p> <p>JORIY NAZORAT (JN) JNda talabaning fan mavzulari bo‘yicha bilim, amaliy ko‘nikma va kompetensiyalarni egallash darajasini aniqlash va baholab borish ko‘zda tutiladi. Tibbiyot kasbiga kirish fani bo‘yicha JN og‘zaki, o‘rgatuvchi-nazorat testlari, tarqatma materiallari bilan ishlash, vaziyatli</p>	No	Baxolash turi	Maksimal ball	Kredit soni	1.	Auditoriyadagi o‘quv mashg‘ulotlarni baxolash (JN)	100	6	2	Oralik nazorat (o‘tilishi majburiy).	100	0	3	Yakuniy nazorat (YaN) (o‘tilishi majburiy).	100	0		JAMI	100	6.0
No	Baxolash turi	Maksimal ball	Kredit soni																		
1.	Auditoriyadagi o‘quv mashg‘ulotlarni baxolash (JN)	100	6																		
2	Oralik nazorat (o‘tilishi majburiy).	100	0																		
3	Yakuniy nazorat (YaN) (o‘tilishi majburiy).	100	0																		
	JAMI	100	6.0																		

masalalar, mulyaj va fantomlarda ishlash ma'lumotlarini o'rganish, uyga berilgan vazifalarni tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkaziladi.

Baholashda talabaning bilim darajasi, amaliy mashg'ulot materiallarini o'zlashtirishi, nazariy material muhokamasida va ta'limning interaktiv usullarida ishtirokining faollik darajasi, shuningdek, amaliy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish darajasi, kompetensiyalarni egallash (ya'ni nazariy, analitik va amaliy yondoshuvlar) hisobga olinadi. Talabalar fan bo'yicha 100 ballik tizimda baxolanadi. JN kafedrada og'zaki so'rov va masofaviy ta'lim platformasida test shakllarida o'tkaziladi. Har bir mashg'ulotda barcha talabalar baholanishi shart va o'qituvchi tomonidan talabaning JN og'zaki so'rov shaklidan olgan bali shu kunni o'zida platformaga qo'yiladi.

Joriy nazorat uchun 6 kredit ajratiladi:

Talaba xar bir bo'limdan belgilangan kreditlarni to'plagandan keyingina yakuniy nazoratga kiritiladi.

Fan bo'yicha talaba reytingi quyidagicha aniqlanadi:

Ball	ECTS baho	ECTS ning ta'rifi		Baho	Ta'rifi
86-100	A	"a'lo" - a'lo natija, minimal hatoliklar bilan	fan dasturining barcha bo'limlari bo'yicha tizimli, to'la va chuqur bilimga ega bo'lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi; terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, o'z o'rnida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to'g'ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi; muammoli savollarni aniqlashi, o'z qarashlarini ilmiy-amaliy tilda asoslab bera olishi; fanning tayanch tushunchalarini bilishi va uni qisqa vaqt ichida ilmiy va amaliy masalalarni yechishda samarali qo'llay olishi; nostandart vaziyatlarda muammolarni mustaqil va ijodiy hal qila olish qobiliyatini ko'rsata olishi; amaliy ko'nikmalarni mustaqil ravishda to'liq bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetensiyalarni to'liq egallashi; amaliy masalalarni qisqa, asoslangan va ratsional ravishda hal etishi; fan dasturida tavsiya etilgan asosiy va qo'shimcha adabiyotlarni to'liq va chuqur o'zlashtirishi;	5	a'lo

			<p>fan bo'yicha nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglash, ularga tanqidiy baho berish va boshqa fanlar ilmiy yutuqlarini qo'llay olishi;</p> <p>nazariy va amaliy mashg'ulotlarda butun semestr mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo'lishi, vazifalarni bajarishda yuqori madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;</p>		
81-85	B	"juda yaxshi" - o'rtadan yuqori natija, ayrim hatoliklar bilan	<p>fan dasturining barcha bo'limlari bo'yicha tizimli, to'la va chuqur bilimga ega bo'lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi;</p> <p>terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, o'z o'rnida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to'g'ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi;</p> <p>o'z fikrini isbotlashda yoki boshqa nazariy materialni bayon qilishda yuzaga kelgan noaniqliklarni mustaqil bartaraf eta olishi;</p> <p>fanning tayanch tushunchalarini bilishi, qisqa vaqt ichida ilmiy va kasbiy vazifalarni qo'yish hamda hal qilishda undan unumli foydalanishi;</p> <p>standard vaziyatlarda muammolarni o'quv dasturi doirasida mustaqil hal qila olishi;</p> <p>amaliy ko'nikmalarni mustaqil ravishda to'liq bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetensiyalarni to'liq egallashi;</p> <p>amaliy mashg'ulotlarda normativ- huquqiy hujjatlarni yaxshi bilishini namoyish qilishi, ushbu bilimlarni yangi vaziyatlarda to'g'ri (lekin doim ham ratsional emas) qo'llay olishi, bajarilgan ish natijalarini yetarli darajada rasmiylashtira olmaganligi;</p> <p>fan dasturida tavsiya qilingan asosiy adabiyotlarni o'zlashtirishi;</p> <p>o'rganilayotgan fan bo'yicha nazariyalar,</p>	4	yaxshi

			<p>konsepsiyalar va yoʻnalishlar mohiyatini angʻlay olishi va ularga tanqidiy baho berishi;</p> <p>nazariy va amaliy mashgʻulotlarda butun semestr mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol boʻlishi, vazifalarni bajarishda juda yaxshi madaniyat darajasiga ega boʻlishi lozim;</p>		
71-80	C	"yaxshi" - oʻrtacha natija, sezilarli hatoliklar bilan	<p>fan dasturining barcha boʻlimlari boʻyicha tizimli, toʻla va chuqur bilimga ega boʻlishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi, ammo bir oz kamchiliklar bilan;</p> <p>terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, oʻz oʻrnida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan toʻgʻri, stilistik savodli ravishda ifodalashi;</p> <p>oʻz fikrini isbotlashda yoki boshqa nazariy materialni bayon qilishda yuzaga kelgan noaniqliklarni mustaqil bartaraf eta olishi;</p> <p>fanning tayanch tushunchalarini bilishi, qisqa vaqt ichida ilmiy va kasbiy vazifalarni qoʻyish hamda hal qilishda undan unumli foydalanishi;</p> <p>standart vaziyatlarda muammolarni oʻquv dasturi doirasida mustaqil hal qila olishi;</p> <p>amaliy koʻnikmalarni mustaqil ravishda bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetensiyalarni egallashi, ammo bir oz kamchiliklar bilan;</p> <p>amaliy mashgʻulotlarda normativ- huquqiy hujjatlarni yaxshi bilishini namoyish qilishi, ushbu bilimlarni yangi vaziyatlarda toʻgʻri (lekin doim ham ratsional emas) qoʻllay olishi, bajarilgan ish natijalarini yetarli darajada rasmiylashtira olmaganligi;</p> <p>fan dasturida tavsiya qilingan asosiy adabiyotlarni oʻzlashtirishi;</p> <p>oʻrganilayotgan fan boʻyicha nazariyalar, konsepsiyalar va yoʻnalishlar mohiyatini angʻlay</p>		

			<p>olishi va ularga tanqidiy baho berishi;</p> <p>nazariy va amaliy mashg'ulotlarda butun semestr mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo'lishi, vazifalarni bajarishda yaxshi darajaga ega bo'lishi lozim;</p>		
60-70	D	"qoni-qarli" - sust natija, qo'pol kamchiliklar bilan	<p>davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida yetarli bilim hajmiga ega bo'lishi;</p> <p>terminologiyani ishlatishi, savollarga javoblarni to'g'ri bayon qilishi, lekin bunda ayrim xatolarga yo'l qo'yishi;</p> <p>javob berishga yoki ayrim maxsus ko'nikmalarni namoyish qilishda qiynalganda, fan bo'yicha asosiy tushunchaga ega ekanligini namoyish etishi;</p> <p>amaliy ko'nikmalarni (sifati va belgilangan soni jihatdan) mustaqil ammo hatoliklar bilan to'liq bajara olishi;</p> <p>kompetensiyalarni mustaqil, ammo hatoliklar bilan egallashi;</p> <p>fanining umumiy tushunchalari bo'yicha qisman bilimga ega bo'lishi va uni standart (namunaviy) vaziyatlarni hal etishda qo'llay olishi;</p> <p>pedagog xodim yordami bilan standart vaziyatlarni hal eta olishi;</p> <p>o'qilayotgan fan bo'yicha asosiy nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglashi, ularga baho bera olishi;</p> <p>nazariy va amaliy mashg'ulotlarda pedagog xodim rahbarligida qatnashishi, vazifalarni bajarishda yetarli madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;</p>	3	Qoni qarli
55-59	E	"o'rta" - minimal natijaga teng	<p>davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida qoniqarli bilim hajmiga ega bo'lishi;</p> <p>terminologiyani ishlatishi, savollarga javoblarni to'g'ri bayon qilishi, lekin bunda ayrim qo'pol xatolarga yo'l qo'yishi;</p> <p>javob berishga yoki ayrim maxsus ko'nikmalarni namoyish qilishda qiynalganda va hatolarga</p>		

			<p>yo'l qo'yganda, fan bo'yicha asosiy tushunchaga ega ekanligini namoyish etishi;</p> <p>amaliy ko'nikmalarni (sifati va belgilangan soni jihatdan) mustaqil emas va hatoliklar bilan to'liq bajara olishi;</p> <p>kompetensiyalarni mustaqil emas va hatoliklar bilan egallashi;</p> <p>fanining umumiy tushunchalari bo'yicha qisman bilimga ega bo'lishi va uni standard (namunaviy) vaziyatlarni hal etishda qo'llay olishi;</p> <p>pedagog xodim yordami bilan standart vaziyatlarni hal eta olishi;</p> <p>o'qilayotgan fan bo'yicha asosiy nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglashi, ularga baho bera olishi;</p> <p>nazariy va amaliy mashg'ulotlarda pedagog xodim rahbarligida qatnashishi, vazifalarni bajarishda yetarli madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;</p>		
31-54	FX	"qoniqarsiz" - minimal darajadagi bilim-larni olish uchun qo'shimcha mustaqil o'zlashtirishi zarur	<p>davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida faqat ayrim fragmentar bilimlarga ega bo'lsa;</p> <p>ilmiy terminlarni ishlata olmasa yoki javob berishda jiddiy mantiqiy xatolarga yo'l qo'ysa;</p> <p>nazariy va amaliy mashg'ulotlarda passiv qatnashib, vazifalar bajarish madaniyatining past darajasiga ega bo'lsa;</p> <p>amaliy ko'nikmalarga va kompetensiyalarga ega bo'lmasa, o'z xatolarini hatto pedagog xodim tavsiyalari yordamida ham to'g'rilay olmasa.</p>	2	Qoniqarsiz
0-30	F	"mutloq qoniqarsiz" to'liq qayta o'zlashtirishi lozim	<p>davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida faqat ayrim fragmentar bilimlarga ega bo'lsa;</p> <p>terminlarni ishlata olmasa yoki javob berishda jiddiy va qo'pol mantiqiy xatolarga yo'l qo'ysa yoki umuman javob bermasa;</p> <p>nazariy va amaliy mashg'ulotlarda passiv qatnashib, vazifalar bajarish madaniyatining past darajasiga ega bo'lsa yoki umuman bajarmasa;</p>		

			amaliy ko'nikmalarga va kompetensiyalarga ega bo'lmasa, o'z xatolarini hatto pedagog xodim tavsiyalari yordamida ham to'g'rilay olmasa.		
YAKUNIY NAZORAT (YAN)					
<p>Yakuniy nazoratga kredit soat ajratilmaydi, lekin topshirish majburiy. Talaba YaN nazoratga qadar TMI bo'yicha bajargan ishini PDF variantini masofaviy ta'lim platformasiga joylashtiradi hamda qog'oz variantini o'qituvchisiga topshiradi. Talaba TMI bo'yicha bajargan ishini YaN kuni ximoya qiladi. YaN fan yakunida kafedrada og'zaki so'rov yoki test shaklida o'tkaziladi. Bunda talabalarning kompetensiyalarni, amaliy ko'nikmalarni egallash darajasi va nazariy bilimlari tekshiriladi.</p>					
<p>Al-Farabiy Milliy Kazaxiston Universiteti Davolash ishi fakultetining Jamoat salomatligi fanining ishchi o'quv dasturidan quyidagi amaliy mash'ulot mavzulari qo'shimcha sifatida kiritildi: Analitik statistikaga kirish. Sifatli tahlil usullari o'zgaruvchilar, mustaqil va tegishli namunalarda (hi-kvadrat testi, Fisher aniq testi, Maknemar testi). Parametrik bo'lmagan testlar (Mann-Whitney U-testi, Wilcoxon U-testi, Kruskal testi. Uollis testi, Fridman testi. Korrelyatsiya (Pirson va Spirman) va regressiya.</p>					
6	Asosiy adabiyotlar				
<ol style="list-style-type: none"> 1. Mamatkulov B.// Jamoat salomatligi va sog'liqni saqlashni boshqarish, "ILM ZIYO" Toshkent, 2013 y. 2. Qodirov A.A.. Tibbiyot tarixi. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent, 2005 y. 3. Medik V.A., YUr'ev V.K. "Obshestvennoe zdorov'e i organizatsiya zdavooxraneniya", M: «Professional», Rossiya. Darslik, 2009 g. 					
Qo'shimcha adabiyotlar					
<ol style="list-style-type: none"> 1. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. 2017 y. O'zbekiston matbuot va axborot agentligining "O'zbekiston" nashriyot matbaa ijodiy uyi. 2. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizning mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. 2017 y. O'zbekiston matbuot va axborot agentligining "O'zbekiston" nashriyot matbaa ijodiy uyi. 3. Mirziyoev SH.M. erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. 2016 y. O'zbekiston matbuot va axborot agentligining "O'zbekiston" nashriyot matbaa ijodiy uyi. 4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va Qarorlari 5. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining buyruqlari 6. Primenenie metodov statisticheskogo analiza dlya izucheniya obshestvennogo zdorov'ya i zdavooxraneniya. Uchebnoe posobie /pod red. V. Z. Kucherenko.M.: GEOTAR – Media, 2011 g. 7. Mamatkulov B. // Tibbiyot statistikasi (biostatistikasi) asoslari. Toshkent, 2005y. 8. Mamatkulov B.M., LaMort, Raxmanova N. Klinicheskaya epidemiologiya i osnovi dokazatel'noy meditsini, Tashkent., 2008 g. 9. Iskandarova SH.T., Maxmudova N.M., Djalilova G.A. Jamoat salomatligi va 					

	<p>sogʻliqni saqlashni tashkil qilishning asosiy masalalari oʻquv qoʻllanma, 2011 y.</p> <p>10. Iskandarov T.I., Abdufattaev A.A. Jamoatchilik salomatligi va sogʻliqni saqlash, Toshkent – 2008 y.</p> <p>11. Kadirov A.A. Oʻzbekiston tibbiyot tarixi. Ibn Sinonashriyoti, Toshkent, 2001 y.</p> <p>12. Tursunov e. Tibbiyotimizning barhayot siymolari. Fan va texnologiya. Toshkent, 2013 y.</p> <p>13. Kotler F., Kelle K.L. Marketing i menedjment. ekspress-kurs: Piter; SPb.; 2010 g.</p> <p>14. Global Health 101. Richard Skolnik, USA, 2015y.</p> <p>15. Al-Farabiy Milliy Kazaxiston Universiteti Davolash ishi fakulteti Jamoat salomatligi fanidan ishchi oʻquv dasturi -2024y</p> <p>Internet saytlari</p> <p>1. www.kaznu.kz</p> <p>2. http://www.apha.org/media, Kniga American Public Health Association</p> <p>2. www.yandex.ru/</p> <p>3. www.google.ru,</p> <p>4. www.google.co.uz</p> <p>5. info@minzdrav.uz</p> <p>6. www.zyonet.uz</p> <p>7. www.booksmed.com</p>
7	Andijon davlat tibbiyot instituti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.
8	<p>Fan/fan uchun mas`ullar:</p> <p>S.M.Babich - Ijtimoiy gigiyena va sogʻliqni saqlashni boshqarish kafedrasini mudiri, dotsent</p> <p>D.U.Temirova - ADTI Ijtimoiy gigiyena va sogʻliqni saqlashni boshqarish kafedrasini assistenti</p> <p>U.M.Sadiqova - ADTI Ijtimoiy gigiyena va sogʻliqni saqlashni boshqarish kafedrasini katta oʻqituvchisi</p>
9	<p>Taqrizchi:</p> <p>E.Z.Isoqov - Fargʻona Jamoat salomatligi tibbiyot instituti Jamoat salomatligi, SST va B kafedrasini mudiri, t.f.d.</p>